



**AUDITORIYADAN TASHQARI VA RAQAMLI TA'LIM MUHITI
SHAROITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHINING PEDAGOGIK IMIDJINI
SHAKLLANTIRISH MASALALARI**

Tohirova Mohira Samandar qizi,

Samarqand davlat pedagogika instituti magistri

mohira_tohirova@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada auditoriyadan tashqari va raqamli ta'lim muhiti sharoitida bo'lajak o'qituvchining pedagogik imidjini shakllantirishga oid nazariy va amaliy masalalar yoritiladi. Pedagogik imidj tushunchasining kasbiy, kommunikativ, axloqiy va tashqi ko'rinish kabi tarkibiy komponentlari tahlil etilib, auditoriya mashg'ulotlari, auditoriyadan tashqari faoliyat va raqamli ta'lim muhiti (onlayn platformalar, masofaviy kurslar, ijtimoiy tarmoqlar) o'rtasidagi uzviy bog'liqlik asoslanadi. To'garak va klub mashg'ulotlari, volontyorlik va loyihaviy faoliyat, shuningdek raqamli platformalardagi interaktiv topshiriqlar va refleksiv onlayn muloqotlarning pedagogik imidjni rivojlantirishdagi imkoniyatlari ko'rsatib beriladi. Kuzatuv va so'rovnomalarga tayangan holda pedagogik imidjni shakllantirishning ayrim bosqichlari va samaradorlik mezonlari taklif etilib, o'quv dasturlari hamda auditoriyadan tashqari ishlar mazmuniga raqamli texnologiyalarni maqsadli integratsiya qilish zarurligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: bo'lajak o'qituvchi, pedagogik imidj, auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar, raqamli ta'lim muhiti, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kasbiy kompetensiya, onlayn platformalar, interaktiv ta'lim.

Annotation: the article covers theoretical and practical issues related to the formation of the pedagogical image of the future teacher, in addition to the audience and in the context of the digital educational environment. The structural components of the concept of a pedagogical image, such as professional, communicative, moral and external appearance, are analyzed and the inextricable connection between audience training, extramural activities and the digital educational environment (online platforms, distance courses, social networks) is based. The possibilities of Circle and club training, volunteering and project activities, as well as interactive assignments and reflexive online communication on digital platforms in the development of a pedagogical image are shown. Certain stages of the formation of a pedagogical image and criteria for effectiveness, relying on observation and surveys, are proposed, as well



as the need for targeted integration of digital technologies in the content of educational programs and non-audience work.

Keywords: *future teacher, pedagogical image, extracurricular activities, digital education environment, ICT, professional competence, online platforms, interactive education.*

KIRISH

Raqamli transformatsiya sharoitida bo‘lajak o‘qituvchidan faqat predmet bo‘yicha bilim emas, balki raqamli kompetensiyalar, kommunikativ madaniyat va barqaror ijobiy pedagogik imidj ham talab etilmoqda. Pedagogik imidj ko‘p komponentli hodisa bo‘lib, o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi, ma‘naviy-axloqiy qiyofasi, nutq va muloqot uslubi, tashqi ko‘rinishi, shuningdek, raqamli makondagi o‘zini tutish madaniyati bilan uzviy bog‘liqdir.

Amaldagi tajriba shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak o‘qituvchining imidji ko‘pincha tasodifiy ravishda, auditoriya mashg‘ulotlari doirasida shakllanadi, auditoriyadan tashqari faoliyat va raqamli ta‘lim muhiti esa bu jarayonga yetarli darajada maqsadli jalb etilmaydi. Aslida esa klub va to‘garaklar, loyihaviy va volontyorlik faoliyati, onlayn platformalar va ijtimoiy tarmoqlar bilan bog‘langan mashg‘ulotlar pedagogik imidjni rivojlantirish uchun kuchli resurs hisoblanadi. Shu bois mazkur maqolada auditoriyadan tashqari va raqamli ta‘lim muhiti sharoitida bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik imidjini shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari va pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik imidjini auditoriyadan tashqari va raqamli ta‘lim muhiti sharoitida shakllantirish jarayonini kompleks o‘rganish maqsad qilingan bo‘lib, ish tizimlilik, integrativ yondashuv, shaxsga yo‘naltirilganlik, faoliyatga asoslanganlik va refleksivlik tamoyillariga tayanadi. Avvalo, pedagogik imidj, kasbiy kompetensiya, raqamli pedagogika, auditoriyadan tashqari ta‘lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid mahalliy va xorijiy adabiyotlar, shuningdek ta‘limni raqamlashtirish bo‘yicha me‘yoriy-huquqiy hujjatlar tizimli tahlil qilinib, nazariy-metodologik asoslar aniqlashtirildi. Ilmiy manbalar tahlili orqali bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik imidji tarkibiy tuzilmasi, auditoriyadan tashqari faoliyat va raqamli ta‘lim muhitining integrativ imkoniyatlari, ularning o‘zaro bog‘liqligi bo‘yicha konseptual yondashuv ishlab chiqildi. Keyingi bosqichda nazariy xulosalarni empirik ma‘lumotlar bilan boyitish maqsadida bir qator empiric metodlar qo‘llandi. Dastlab so‘rovnoma usuli yordamida pedagogika yo‘nalishida tahsil



olayotgan bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik imidj haqidagi tasavvurlari, auditoriyadan tashqari va raqamli ta'limdagi ishtirok darajasi, o'z kasbiy qiyofasini baholash xususiyatlari o'rganildi. Likert tipidagi shkalalar asosida tuzilgan savolnomalar respondentlarning munosabatlarini miqdoriy ifodalash imkonini berdi. Shundan so'ng pedagogik kuzatuv asosida auditoriyadan tashqari tadbirlarda (klub va to'garaklar, ma'naviy-ma'rifiy uchrashuvlar, loyihaviy va volontyorlik faoliyati) hamda raqamli muhitda talabalarning o'zini tutishi, muloqot uslubi, tashabbuskorligi va liderlik ko'nikmalari tizimli ravishda qayd etildi.

1-jadval: Tadqiqot metodologiyasi: qo'llangan metodlar va ularning vazifalari				
№	Metod / yondashuv	Qisqa mazmuni	Maqsadi	Natija / chiqishlar
1	Adabiyotlarni tizimli tahlil	Ilmiy manbalar va normativ hujjatlarni o'rganish	Nazariy asoslarni aniqlash	Konseptual yondashuv, model
2	Konseptual va kategoriyaviy tahlil	Asosiy tushunchalar mazmunini tahlil qilish	Obyekt, predmet va tushunchalarni aniqlashtirish	Tushuncha va struktura ta'riflari
3	So'rovnoma	Likert shkalasi asosida talabalar fikrini o'lchash	Imidj, faoliyat va munosabatlarni baholash	Foizlar, o'rtacha ballar, jadval, grafik
4	Pedagogik kuzatuv	Auditoriyadan tashqari va raqamli faoliyatni kuzatish	Real xulq va muloqotni aniqlash	Kuzatuv protokollari, sifat tavsiflari
5	Yarim tuzilmaviy suhbat	Talaba va o'qituvchilar bilan intervyu	Subyektiv qarash va motivlarni ochish	Kontent-tahlil uchun matnli ma'lumot
6	Tajriba-sinov elementlari	Maxsus dastur asosida faoliyatni joriy etish	Taklif etilgan yondashuv samaradorligini tekshirish	Tajriba-nazorat taqqoslash natijalari
7	Deskriptiv statistika	So'rov ma'lumotlarini oddiy statistik qayta ishlash	Miqdoriy tendensiyalarni ko'rsatish	Jadval, grafik va statistik xulosalar




8	Kontent-tahlil	Suhbat va kuzatuv matnlarini mavzular bo'yicha kodlash	Sifat ma'lumotlardan umumiy xulosalar olish	Asosiy mavzular, tavsiyalar, model
----------	----------------	--	--	---

Tadqiqotning sifat jihatini chuqurlashtirish maqsadida yarim tuzilmaviy suhbatlar o'tkazilib, tanlab olingan talaba va o'qituvchilar bilan pedagogik imidjning mazmuni, raqamli maydondagi pedagogik obraz talablari, auditoriyadan tashqari faoliyatning shaxsiy va kasbiy rivojlanishga ta'siri haqidagi qarashlar tahlil qilindi. Ayrim guruhlarda tajriba-sinov ishlarining elementlari qo'llanib, auditoriyadan tashqari va raqamli faoliyat maxsus dastur asosida tashkil etildi va bu orqali bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik imidjida o'zgarishlar dinamikasi kuzatildi. Empirik bazani pedagogika yo'nalishidagi bakalavriyatning yuqori kurs talabalari va magistrantlar tashkil etib, tanlovda ularning auditoriyadan tashqari ishlardagi faolligi, raqamli ta'lim platformalaridan foydalanish tajribasi va kasbiy motivatsiyasi inobatga olindi. Olingan so'rovnoma ma'lumotlari deskriptiv statistika usullari yordamida qayta ishlanib, kuzatuv va suhbat natijalari kontent-tahlil asosida umumlashtirildi. Nazariy va empirik natijalar taqqoslanib, auditoriyadan tashqari va raqamli ta'lim muhiti sharoitida bo'lajak o'qituvchining pedagogik imidjini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar, pedagogik shart-sharoitlar va mexanizmlar bo'yicha xulosalar ishlab chiqildi.

NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI

O'tkazilgan diagnostik tadqiqotlar natijalari bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik imidj haqidagi tasavvurlari, auditoriyadan tashqari va raqamli ta'lim muhitidagi ishtiroki hamda o'zini kasbiy subyekt sifatida anglash darajasi turlicha ekanini ko'rsatdi. So'rovnoma ma'lumotlari tahliliga ko'ra, respondentlarning sezilarli qismi pedagogik imidjni avvalo tashqi ko'rinish, nutq madaniyati va xulq-atvor etiketi bilan bog'laydi. Shu bilan birga, talabalarning ma'lum qismi bu tushunchani kasbiy bilim va kompetensiyalar, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar hamda raqamli muhitdagi professional qiyofa bilan ham integratsiyada ko'radi. Bu holat bo'lajak o'qituvchilar orasida pedagogik imidjning ko'p komponentli mohiyatini anglash jarayoni boshlanganini, biroq u hali to'liq tizimlashtirilmaganini anglatadi.



1-rasm. *Bo'lajak o'qituvchining pedagogik imidjini auditoriyadan tashqari va raqamli ta'lim muhiti sharoitida shakllantirish modeli*

O'zini baholash natijalari bo'yicha talabalarning aksariyati o'z nazariy va metodik tayyorgarlik darajasini nisbatan yuqori deb baholagan, lekin kommunikativ kompetensiya, liderlik, jamoa bilan ishlash va auditoriyadan tashqari vaziyatlarda o'zini boshqarish ko'nikmalarida bo'shliqlar mavjudligini tan olgan. Raqamli ta'lim muhiti bilan bog'liq savollar tahlili shuni ko'rsatdiki, ko'pchilik respondentlar onlayn platformalar va elektron resurslardan muntazam foydalanadi, biroq ijtimoiy tarmoqlar va raqamli maydondagi ishtirokini ko'proq shaxsiy muloqot doirasi sifatida qabul qiladi; kelajakdagi o'qituvchi sifatidagi imidjini bu makonda maqsadli boshqarish ko'nikmalari yetarlicha shakllanmagan. Pedagogik kuzatuv natijalari auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda muntazam qatnashuvchi talabalar guruhida kommunikativ faollik, tashabbuskorlik, ijtimoiy mas'uliyat va liderlik sifatleri ancha yaqqol namoyon bo'lishini ko'rsatdi. Bunday talabalar raqamli ta'lim muhitida ham nisbatan faol bo'lib, ta'limiy kontent yaratish, taqdimot va videodarslar tayyorlash, elektron portfoliolar yuritish kabi faoliyatlarda boshqalarga qaraganda ko'proq ishtirok etadi. Auditoriyadan tashqari tadbirlarda deyarli qatnashmaydigan talabalar esa pedagogik imidjni asosan dars jarayoni bilan cheklangan holda tasavvur qilishi, raqamli maydondagi ishtirokini shaxsiy, norasmiy obraz bilan bog'lashi kuzatildi. Bu esa shaxsiy tajriba va aksial qadriyatlar, professional-pedagogik kontekst hamda auditoriyadan tashqari va raqamli ta'lim muhiti o'rtasidagi o'zaro ta'sir pedagogik imidj shakllanishida differensial rol o'ynayotganini ko'rsatadi (1-rasm).

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, auditoriyadan tashqari va raqamli ta'lim muhitini stixiyali emas, balki maxsus loyihalangan pedagogik makon sifatida tashkil



etish bo'lajak o'qituvchining pedagogik imidjini barqaror va kompleks rivojlantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, ayrim talabalar auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarni hanz rasmiy majburiyat sifatida qabul qilishi, raqamli muloqot odobi va kasbiy obraz uyg'unligiga yetarli e'tibor bermasligi aniqlangani kelgusida refleksiya madaniyatini kuchaytirish, raqamli pedagogik etika bo'yicha maxsus modullar joriy etish hamda shaxsiy va kasbiy obraz integratsiyasiga qaratilgan ishlarni yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari bo'lajak o'qituvchining pedagogik imidji shaxsiy tajriba va aksial qadriyatlar, professional-pedagogik kontekst hamda auditoriyadan tashqari va raqamli ta'lim muhiti o'zaro integratsiyasi asosida shakllanishini ko'rsatdi. So'rovnoma va kuzatuvlar talabalarning imidjni ko'proq tashqi ko'rinish va nutq madaniyati bilan bog'lashini, biroq kasbiy, axloqiy va raqamli komponentlarni ham asta-sekin anglay boshlayotganini aniqladi. Maxsus dastur asosida tashkil etilgan auditoriyadan tashqari va raqamli mashg'ulotlar tajriba guruhi talabalari orasida kommunikativ faollik, liderlik, raqamli pedagogik obraz va umumiy imidj bo'yicha ijobiy dinamikani ta'minladi, nazorat guruhida esa bunday o'sish kuzatilmadi. Bu esa auditoriyadan tashqari va raqamli ta'lim faoliyatini konseptual model asosida maqsadli loyihalash bo'lajak o'qituvchining ijobiy pedagogik imidjini shakllantirishda samarali yo'l ekanini tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Beijaard, D., Meijer, P. C., & Verloop, N. Reconsidering research on teachers' professional identity. *Teaching and Teacher Education*, 2004, 20(2), 107–128.
2. Izadinia, M. A review of research on student teachers' professional identity. *British Educational Research Journal*, 2013, 39(4), 694–713.
3. Meyer, D., et al. Professional identity of pre-service teachers: actual and designated identity. *Frontiers in Education*, 2023, 8, 1134848.
4. Mohammadkarimi, E. Pre-service teachers and teacher educators' perceptions of technological pedagogical knowledge and professional identity development. *Australian Journal of Teacher Education*, 2023, 48(1), 17–40.
5. Uysal, F. The impact of extracurricular activities on pre-service teachers. *Journal of Intelligence*, 2025, 13(7), 87.